

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

TURDIYEV SHAVKAT MA’MIROVICH

**TIBBIY TA’LIMDA TALABALAR PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING INTENSIV TEXNOLOGIYALARI
(Gigiyena fanini o‘qitish misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tibbiyot fanlari)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of doctor of philosophy dissertation (PhD)

Turdiyev Shavkat Ma'mirovich

Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari (gigiyena fanini o'qitish misolida).....3

Турдиев Шавкат Маъмирович

Интенсивные технологии развития профилактической компетентности студентов в медицинском образовании (на примере преподавания гигиены).....25

Turdiyev Shavkat Ma'mirovich

Technology for developing practical skills of medical students through the use of intensive simulators (based on the example of teaching hygiene).....47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

TURDIYEV SHAVKAT MA’MIROVICH

**TIBBIY TA’LIMDA TALABALAR PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING INTENSIV TEXNOLOGIYALARI
(Gigiyena fanini o‘qitish misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tibbiyot fanlari)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped6399 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti veb-sahifasi (www.fjsti.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xashirbayeva Dinara Maxkambayevna
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Iminaxunova Iroda Xuseynovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Salomova Feruza Ibodullayevna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160119, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_____” _____kuni tarqatildi.

(2025 yil “___” _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.Yu.Yuldashev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

M.T.Rasulova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

M.R.Kadirova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tibbiy profilaktika yo‘nalishi aholining umumiy salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda muhim o‘rin tutadigan yo‘nalish sifatida aholining sog‘lom turmush-tarzi olib borishi va profilaktik kompetensiyasini rivojlantirish da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiyot sohasida profilaktika samaradorligini oshirishga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda, chunki kasalliklarning oldini olish, ularni barvaqt aniqlash va ularni kelib chiqish sabablarini yo‘q qilish tibbiy xizmatlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Profilaktika kompetentligiga ega mutaxassislarni tayyorlash nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va aholi salomatligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Jahonda zamonaviy tibbiyot yo‘nalishida profilaktik usullarni samarali qo‘llash talablari oshib bormoqda, chunki ushbu yondashuv kasalliklarni davolashdan ko‘ra, ularning oldini olishning ancha samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, profilaktika sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zamonaviy tibbiy ta‘limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Profilaktik bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorgarligi kasalliklarning barvaqt oldini olish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash va jamoatchilik salomatligini yaxshilashdagi muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada Shveysariyaning Shimoli-g‘arbiy amaliy fanlar universitetida (Northwestern University of Applied Sciences) tibbiy ta‘lim talabalariga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, ularning profilaktik kompetentligini va amaliyotda qo‘llanuvchanlik darajasini oshiradigan intensiv ta‘lim texnologiyalari bo‘yicha elektron platforma yaratilgan¹. Shuningdek, Xitoyning Qingdao Universitetida sanitariya sohasida nazariya va amaliy mashg‘ulotlarni integratsiya qilish orqali profilaktikaga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan².

Mamlakatimizda sog‘lom turmush - tarzini olib borish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish bo‘lajak shifokorlarni jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun tayyorlashga, shuningdek, Respublikamizda sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilishga, tizimni takomillashtirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish ga davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda 2025-yilga qadar sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish konsepsiyalari hamda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 10-noyabrdagi “Aholining

¹ https://www.fhnw.ch/de/studium/lifesciences/bachelor/bachelor-info-anlaesse?gad_source=1&gclid=Cj0KCQiA88a5BhDPArisAFj595ijBXpzOh9WKHQmokUaUXX3MZPfcPqHkMU_Plw5gzBtTckNXmEDsGn0aAseCEALw_wcB

² <https://english.qdu.edu.cn/>.

sogʻlom ovqatlanishini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4887-sonli qarori , 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-sonli «Tibbiyot va farmasevtika taʼlimi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi boʻyicha bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oliy tibbiy taʼlim jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida taʼlim berish, boʻlajak shifokorlar profilaktik kompetentligini rivojlantirish masalalari boʻyicha qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu yoʻnalishning ayrim jihatlari mahalliy pedagog - olimlar: M.Kadirova, N.Komilov, I.Iminaxunova, Sh.Poʻlatova, F.Muydinov, Sh.Ahmadaliyev, B.Haydarova va boshqalarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Biroq, olib borilgan tadqiqotlar tibbiyot pedagogikasining maʼlum bir sohasida tahlil qilingan boʻlib, Gigiyena yoʻnalishini tibbiy taʼlimda oʻqitish boʻyicha maʼlumotlar tahlil qilinmagan. Shu maʼnoda, ushbu dissertatsiya ishi mamlakatimizda tibbiy taʼlim talabalarining intensiv texnologiyalar orqali profilaktik kompetensiyasini rivojlantirish yoʻnalishida kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun yetarli asos boʻlib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlarida gigiyena fanining ilmiy-pedagogik jihatdan ahamiyati va tibbiy taʼlim talabalarining boʻlajak mutaxassis sifatidagi profilaktik kompetentligiga xos fazilatlariga ega shaxs sifatida tayyorlash nuqtayi nazaridan nechogʻlik muhimligi E.Yermakova, N.Lebedova, V.Sidorov, A.Pavlov, I.Fyodorova, S.Ivanova, O.Kuznetsova, M.Grishina, A.Belyayev, T. Zaytseva va boshqalar tomonidan oʻrganilgan.

Xorijiy mamlakat olimlari D.Xoll, L.Grem, J.Smit, M.Uilyams, P.Kleyn, M.Makloud, L.Grin, S.Li, X.Vang, R.Chakrabarti, va boshqa olimlarning tadqiqotlarida atroflicha fikr yuritilgan.

Mavjud tadqiqotlar tahlili bugungi kunda intensiv texnologiyalar orqali tibbiy taʼlim talabalarining boʻlajak shifokor sifatidagi profilaktik kompetentligini rivojlantirish boʻyicha ayrim ilmiy-pedagogik muammolar mavjudligini koʻrsatdi:

– gigiyena fanini oʻqitish jarayonida tibbiy taʼlim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirish va ushbu masalaning nazariy asoslari hamda amaliy metodik jihatlarining modernizatsiya qilinmaganligi;

– tibbiy taʼlim amaliyotida profilaktik kompetentligi yuqori boʻlgan shifokorlarga extiyojning mavjudligi, lekin ularni amaliyot shifokori etib tarbiyalash

uchun nazariyasi va amaliyotida yetarli darajada ilmiy-uslubiy ta'minotning mavjud emasligi;

Ushbu muammolarning mavjudligi bo'lajak shifokorlarning intensiv texnologiyalar orqali valelogik kompetentligini rivojlantirishda yangi metod va yo'nalishlar orqali o'qitish hamda oliy tibbiy ta'lim muassasalariga joriy qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Dissertatsiya mavzusining Dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 20160817122231 raqam bilan qayd qilingan 2024-2025 yillarga mo'ljallangan "Tibbiy ta'lim pedagoglari uchun elektron metodik portalini yaratish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi – tibbiy profilaktika sohasida yuqori kompetentlikka ega tibbiy kadrlarni tayyorlash uchun samarali usullar va yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- tibbiy profilaktika kompetentligi tushunchasining tarkibiy qismlarini tahlil qilish va tibbiy ta'limda uning ahamiyatini aniqlash;

- profilaktika sohasida talabalarga ta'lim berishda intensiv texnologiyalarning turlari va ularning o'quv jarayonidagi samaradorligini tahlil qilish;

- zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan virtual amaliy mashg'ulotlar va keys tadqiqotlari kabi usullarni qo'llash orqali profilaktik kompetentligini rivojlantirish uchun samarali vositalarni tanlash;

- tibbiy ta'lim talabalarning profilaktik kompetentligini oshirishda intensiv ta'lim texnologiyalarining ta'sirini baholash va tibbiy ta'lim muassasalariga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida tibbiy ta'lim jarayonida profilaktika sohasidagi kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv va amaliy jarayonlar, shuningdek, profilaktik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan intensiv texnologiyalar bo'lib, tajriba – sinov ishlarida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot institutining 700 nafar respondent – talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqot predmetini tibbiy ta'lim jarayonida talabalarning profilaktika sohasidagi kompetentligini rivojlantirish uchun intensiv texnologiyalardan foydalanish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish, bo'lajak shifokorlarni tayyorlashga doir normativ hujjatlarni o'rganish, modellashtirish, anketa so'rovlari, testlar, kuzatuv, talabalar faoliyatini o'rganish, pedagogik kuzatish, suhbat, integral diagnostika, sotsiometriya, matematik-statistik metodlar hamda pedagogik tajriba-sinov ishlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– Tibbiy ta'limda talabalarda profilaktik tadbirlarni rivojlantirishda intensiv texnologiyalarning afzalliklari va ularni samarali qo'llashda imitatsiyalar realizmning (vizual, taktik, reaktiv, avtomatlashtirilgan, uskuna, interaktiv, integratsiyalashgan) yetti tasnifi tizimli ravishda asoslangan;

– Gigiyena fanini o‘qitishda talabalarining gigiyenik bilimlari akklimitatsion usullarni qo‘llash orqali T1, T2, T3 tizimining funksional imkoniyatlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

– talabalarni profilaktik kompetentligini oshirish maqsadida kolloborativ o‘qitish usullarini diagnostik qilish, tanqidiy fikrlash, analitik fikrlash hamda gigiyenik reglamentlashning organoleptik xususiyatlariga asoslangan mexanizmi isbotlangan;

– gigiyena fanini o‘qitish jarayonida talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirish maqsadida “STIR (Strategiya, Texnologiya, Interaktivlik, Refleksiya)” modeli orqali ularning ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

– tibbiy ta’lim talabalarining profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar orqali rivojlantirishning o‘quv-uslubiy ta’minoti yaratilgan.

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug‘iga asosan, tibbiy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar uchun tayyorlangan “Tibbiy ta’limda Gigiyena fanini intensiv texnologiyalar orqali o‘qitishni takomillashtirish” o‘quv qo‘llanmasini yaratish jarayonida tadqiqot materiallari, xulosalar va tavsiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlar hamda oliy ta’lim muassasalari talabalarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va xorij olimlari, shuningdek, kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, shuningdek, sifat jihatidan ta’minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

– tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati talabalarda gigiyena fanini o‘qitishning didaktik imkoniyatlari ochib berilganligi;

– tibbiy ta’lim talabalarining profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar orqali rivojlantirish bo‘yicha ta’lim texnologiyalarining mazmuni, profilaktik kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari ishlab chiqilganligi hamda ularning nazariy, tarixiy namunalar, yondashuvlar bilan boyitilganligi va ahamiyatining yoritib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tibbiy ta’lim talabalarini profilaktik kompetentligini rivojlantirishda gigiyena fanini o‘qitishning pedagogik ta’minlash bosqichlari, komponentlari va parametrlarining aniqlashtirilganligi, tibbiy ta’lim jarayonida tibbiy ta’lim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirishda gigiyena faniga doir yangi metodlar ishlab chiqilganligi hamda amaliyotga tadbiiq etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy ta’lim jarayonida gigiyena fanida intensiv texnologiyalar asosida tibbiy ta’lim talabalarini profilaktik kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni va ilmiy natijalar asosida:

– tibbiy ta’limda profilaktik ta’lim jarayonini takomillashtirishda intensiv texnologiyalarning afzalliklari va ularni samarali qo’llashning didaktik imkoniyatlari ijtimoiy va metodik kompetensiyalar bilan o’zaro harakatlarining uzviy bog’liqlik jihatlari “Tibbiy ta’limda Gigiyena fanini intensiv texnologiyalar orqali o’qitishni takomillashtirish” nomli o’quv qo’llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 258). Natijada tibbiy ta’lim muassasalarida talabalarga gigiyena fanini o’qitish metodik ta’minoti takomillashtirilgan;

– tibbiy ta’limda talabalarining profilaktik bilim, ko’nikma va malakalarining rivojlanishi intensiv texnologiyalarning empirik usullari va ularning funksional imkoniyatlari profilaktik strategiyalari “Tibbiy ta’limda Gigiyena fanini intensiv texnologiyalar orqali o’qitishni takomillashtirish” nomli o’quv qo’llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9 – iyundagi 258). Natijada fanlararo bog’liqlikni ta’minlash maqsadida integral ma’ruzalar samaradorligi oshirilgan.

– gigiyena fanini o’qitish jarayonida tibbiy ta’lim talabalarini profilaktik kompetentligini oshirish maqsadida virtual va aralash reallik platformalarini qo’llash orqali talabalarining profilaktik bilimlarini chuqurlashtirish, ularda mustaqil fikrlash va amaliyotda aniq qaror qabul qilish ko’nikmalari “Tibbiy ta’limda Gigiyena fanini intensiv texnologiyalar orqali o’qitishni takomillashtirish” nomli o’quv qo’llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 258). Natijada talabalarining fan bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 1 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda, 1 ta o’quv qo’llanma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, 145 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining asosiy ustuvor yo’nalishlariga mosligi, dissertatsiyaning mavzusi bo’yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharxi, muammoning o’rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tibbiy ta’lim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirishda gigiyena fanining o’rni va uning nazariy metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida gigiyena fanini o’qitish orqali talabalarda profilaktik

kompetentlikni rivojlantirish, ularning tibbiy bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqurlashtirish, tibbiy amaliyotga tayyorligini oshirish maqsad qilingan. Ushbu fanni o'rganish orqali talabalarni jamoat salomatligi, sanitariya va epidemiologiya sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga tayyorlash mumkinligi nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Oliy tibbiy ta'limda talabalarni profilaktik kompetentligini rivojlantirishda Gigiyena fani juda muhim rol o'ynaydi. 1987 yilda Yangi Zelandiyada bo'lib o'tgan Xalqaro profilaktik tibbiyotchilar kengashi yig'ilishida gigiyenaga quyidagicha ta'rif qabul qilindi: "Gigiyena - sog'liqni saqlash tizimining bir qismi bo'lib, kasalliklarning oldini olish, sog'liqni mustahkamlash, psixosotsial yordamni o'z ichiga oladigan sohadir"³.

Gigiyena an'anaviy ravishda jamiyat salomatligi tizimida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi talabalariga o'qitiladigan eng muhim fanlardan biridir.

Zamonaviy tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish o'sib borgan kasalliklarning oldini olish va salomatlikni saqlashga yo'naltirilgan. Gigiyena ta'limi nafaqat tibbiyotning asosiy fanlaridan biri bo'lib, balki zamonaviy davrda o'ziga xos va murakkab fanga aylandi. Shu bilan birga, gigiyena fanining mazmun va maqsadi o'zgardi, u tibbiy xodimlarning gigiyenik bilimlarini oshirish va kasalliklardan himoya qilishga qaratilgan.

Tadqiqotchi Lian Bennett o'z tadqiqotlarida gigiyena fanining tibbiy ta'limdagi o'rni va o'qitish usullarini ko'rib chiqib, har xil bilim berish strategiyalarini va metodologiyalarni tahlil qilgan. U gigiyena fanini o'qitishda interaktiv va amaliyotga asoslangan metodlarni qo'llashning samaradorligini ta'kidladi. Bennetning izlanishlari gigiyenik bilimlarni ilmiy usullar bilan osonlashtirish va ularni talabalarga amaliy hollarda tatbiq qilish uchun turli xil o'qitish yondoshuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan⁴.

Yana bir olim Uilyam Roys o'z tadqiqotlarida gigiyena fanining nazariy asoslarini va uning tibbiy ta'limga integratsiyasini o'rgandi. Uning fikricha, gigiyena fanini o'qitishning maqsadi nafaqat uning nazariy qoidalarini tushuntirish, balki talabalarga amaliyotda ularni qo'llash ko'nikmalarini berishdir. Roysning ishi shuni ko'rsatadiki, tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish natijasida shifokorlar sog'lom turmush tarziga asoslangan profilaktik muolajalarni amalga oshirish uchun yaxshi tayyorlangan bo'ladilar⁵.

U .Roysning izlanishlari gigiyena fanini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi. U gigiyenik fanni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliyotda ham qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar tibbiy ta'limda ta'limning komplekslik va amaliylik orasidagi muvozanatni topishga yordam beradi.

³ <https://www.tewhatauora.govt.nz/health-services-and-programmes/infection-prevention-and-control>.

⁴ Bennett, L. Teaching Hygiene in Medical Education: Interactive Approaches. -Oxford: Oxford University Press. 2023. -P.145.

⁵ Royce, W. (2012). Medical Hygiene: From Theory to Practice. - New York: Springer Science, 2021. - P.245.

Gigiyena fanining ta'lim metodologiyasi — bu gigiyena fanini o'qitishda qo'llaniladigan nazariy va amaliy metodlar, pedagogik strategiyalar, o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va talabalarning profilaktik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks usullar va prinsiplardan iborat. Ushbu metodologiyaning asosiy maqsadi — talabalarda gigiyenik va profilaktik bilimlarni shakllantirish, ularni amaliyotda qo'llashga tayyorlash va sog'liqni saqlashning asosiy prinsiplarini tushuntirish.

Pedagogik strategiyalar — o'quv-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erishish maqsadida qo'llaniladigan uzoq muddatli yo'nalish va jarayonlar bo'lib, ular o'quvchilarning bilimlarini ishlab chiqishga va talabalarning ta'limdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan. Gigiyena fanini o'qitishda pedagogik strategiyalar shunchaki bilim berishdan ko'ra, talabalarni murakkab, realniy hayot shartlarida samarali harakat qilishga tayyorlashga qaratilgan.

Gigiyena fanini o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik strategiyalar:

Muammoli o'qitish - talabalarni muammolarga yo'naltirib, ularni mustaqil tushuncha va yechimlarni topishga undaydi. Gigiyena fanini o'qitishda bu strategiya talabalarga turli profilaktik vaziyatlar va jamoat salomatligiga oid muammolarni tahlil qilishga yordam beradi.

Loyihali o'qitish - talabalarga biror masalaga oid kompleks ishni amalga oshirishni taqdim etadi. Gigiyenik masalalarda, masalan, kasalliklarning oldini olish, sanitariya talablariga rioya qilish kabi mavzularda loyihalarni amalga oshirish orqali talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga olib boradi.

Keys-stadi (case-study) metodi - real hayotdan olingan holatlar va muammolarni tahlil qilish orqali talabalarning muammoga yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirish. Gigiyena fanini o'rganishda realniy holatlardan foydalanish talabalarning bilimlari va ko'nikmalarini hayotga tatbiq qilishga yordam beradi⁶.

Interaktiv ta'lim - talabalarni o'qitishda o'zaro aloqa va baham ko'rishga asoslangan interaktiv usullardan foydalanish. Bu strategiyada talabalar o'rtasida muhokama, fikr almashish va birgalikda qarorlar qabul qilish orqali gigiyena va profilaktikaga oid bilimlar mustahkamlanadi.

Pedagogik ustavlar - bu o'quv jarayonini tashkil qilish va ta'limda qanday yo'nalishlarni qo'llashni belgilaydigan umumiy prinsiplar va yo'nalishlardir. Ustavlar pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va talabalarga yuqori darajadagi bilimlarni berishga qaratilgan.

Gigiyena fanini o'qitishdagi pedagogik ustavlar:

Ijtimoiy-amaliyot ustavi - gigiyena fanini o'qitishda ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni ta'limning mazmuniga kiritish. Masalan, sanitariya-epidemiologiya qoidalari, infeksiyon kasalliklarning oldini olish va jamoat salomatligini saqlashga qaratilgan bilimlarni o'rgatish.

Fundamentallik ustavi- gigiyena fanini o'qitishda uning asosiy prinsiplari va fundamental tushunchalarini talabalarga yetkazish muhim. Bu strategiya ta'limning

⁶ Nguyen, P.T. Hygiene Education Programs in Vietnamese Medical Universities. -Hanoi: Vietnam Health Publishing, 2020. -P.112.

uzluksizligini ta'minlaydi va talabalarga sog'liqni saqlashning asosiy yo'nalishlari haqida bilimlar beradi.

Tanqidiy va tahliliy fikrlash ustavi- talabalarga tanqidiy va tahliliy fikrlashni o'rgatish, ya'ni har bir gigiyenik va profilaktik masalani mustahkam tahlil qilish va yechimlarni tanlash. Bu ustav mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan.

O'quv-amaliyot integratsiyasining ustavi - gigiyena fanini o'qitishda nazariy bilimlar va amaliyotni integratsiyalash. Talabalar nazariy bilimlarni olish bilan birga, ularni amaliyotda qo'llashni ham o'rganishlari kerak. Shuning uchun amaliyot darslari, treninglar va simulyatsiyalar juda muhim.

Gigiyena fanini o'qitishda pedagogik ustavlar va strategiyalar ta'limning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu prinsiplar talabalarga faqat nazariy bilimlarni emas, balki sog'liqni saqlash sohasida amaliy ishlash ko'nikmalarini ham oshirishga qaratilgan. Pedagogik strategiyalar va ustavlarning samarali tatbiqi gigiyena fanini o'qitishda talabalarning profilaktik kompetentligini shakllantirish va mutaxassislarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi⁷.

Gigiyena fanini o'rganish jarayonida tibbiy ta'lim talabalarida bir qator muhim kompetensiyalar shakllanadi, jumladan:

1. Profilaktika va sog'liqni saqlash kompetensiyasi. Talabalar sog'liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha asosiy tushunchalarni o'zlashtiradilar. Bu ularga bemorlar bilan ishlashda profilaktika tadbirlarini o'tkazishga yordam beradi.

Profilaktika va sog'liqni saqlash kompetensiyasi - tibbiy ta'lim talabalarida shakllantirilishi lozim bo'lgan eng muhim kompetensiyalardan biridir. Bu kompetensiya talabalarni kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash, gigiyenik odatlarni shakllantirish va jamoat salomatligini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni samarali tashkil qilishga o'rgatadi.

Ushbu kompetensiyaga ega bo'lgan talabalarda quyidagi bilim va ko'nikmalar rivojlanadi:

– Sog'liqni saqlashning asosiy konsepsiyalari va metodlarini bilish. Talabalar kasalliklarning oldini olish va sog'liqni saqlash bo'yicha zamonaviy konsepsiyalar va asosiy metodlar bilan tanishadilar. Bu ularga bemorlar salomatligini muhofaza qilish yo'nalishida samarali choralar ko'rish imkonini beradi.

– Epidemiologik tahlil va xavfni baholash. Talabalar epidemiologiya va xavfli omillarni baholash bo'yicha bilimlarga ega bo'ladilar, bu esa kasalliklarning tarqalishiga qarshi kurashishda ahamiyatlidir.

– Gigiyenik standartlar va sanitariya qoidalariga rioya qilish. Gigiyena qoidalari va sanitariya standartlariga amal qilish orqali sog'liqni saqlash tizimida yuqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha ko'nikmalarni egallashadi.

– Profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish. Talabalar jamoat sog'lig'ini yaxshilash maqsadida profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

⁷ Ермакова, Р.Б. Гигиенические методы преподавания и педагогические подходы в обучении. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2021. -с.222.

– Axborot tarqatish va sog‘liqni saqlash ta‘limi. Talabalar aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, gigiyena qoidalariga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollik haqida ma‘lumot berish orqali salomatlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydilar.

– Aholi bilan ishlash va maslahat berish. Talabalar profilaktika va sog‘liqni saqlash sohasida jamoat bilan ishlash, ularga maslahatlar berish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

– Muloqot va maslahat berish qobiliyati. Talabalar bemorlar bilan muloqot qilish va ularga profilaktika bo‘yicha maslahat berishda samarali bo‘lish uchun muhim kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Profilaktika va sog‘liqni saqlash kompetensiyasi orqali talabalar profilaktik tadbirlarni to‘g‘ri baho berish, uni rejalashtirish va amalga oshirishni o‘rganadilar. Bu esa kelajakda tibbiy xodim sifatida aholi salomatligini saqlash va yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Gigiyena moduli dasturi davlat ta‘lim standarti asosida tuzilgan va o‘quv rejaning klinik oldi moduli blokiga taalluqli bo‘lib, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan barcha tibbiy fanlarni o‘qitishda bog‘lovshi bo‘g‘im sifatida talabalarning ilmiy tafakkuri, keng dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, tibbiy kasbiy etika tamoyillari asosida tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad - kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, xar tomonlama jismonan yetuk mutaxassislar tayyorlash, bakalavrga ushbu fan yo‘nalishida olib borilayotgan izlanishlar to‘g‘risida ma‘lumot berish.

Fanning vazifasi:

- Gigiyena moduli, maqsadi va vazifalari haqida tushuncha berish;
- talabalarning nazariy ma‘lumotidan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni bajarish darajasiga qadamma-qadam o‘rgatish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbqiq etib, mantiqiy fikrlash va bilimni saqlash darajasini oshirish;
- zamonaviy tekshirish usullari haqida tushuncha berish;
- Gigiyena modulining asoslari, inson organizmi bilan atrof muhit o‘rtasidagi bog‘liqligining asoslari, gigiyenik reglamentlashtirish prinsiplari;
- turli shakldagi patologiyalarning kelib chiqishida tashqi muhitdagi omillarning tutgan o‘rni, atrof muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha tadbirlar va kasalliklarning birlamchi profilaktikasi bilan tanishtirish;

1-jadval.

Gigiyena fanida STIR modeli asosida talabalarning profilaktik kompetentligini rivojlantirishga doir didaktik faoliyat yo‘nalishlari.

STIR komponenti	Didaktik faoliyat mazmuni	Shakllanadigan kompetensiyalar	Namoyon bo‘lish shakllari (ko‘rsatkichlar)
S — Strategy (Strategiya)	Dars rejasi, o‘quv maqsadlarini aniq belgilash, sog‘lom	Rejalashtirish va tahliliy kompetensiya	Maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat, kasbiy ong shakllanishi

STIR komponenti	Didaktik faoliyat mazmuni	Shakllanadigan kompetensiyalar	Namoyon bo'lish shakllari (ko'rsatkichlar)
	turmush tarziga oid topshiriqlar berish		
T — Technology (Texnologiya)	Simulyatsiyalar, virtual platformalar, gigiyena bo'yicha onlayn modullar	Raqamli salomatlik savodxonligi, texnik ko'nikmalar	Simulyatsiyada ishtirok, sog'liqni saqlash texnologiyalarini qo'llay olish
I — Interactivity (Interaktivlik)	Guruhli muhokama, rolga kirish, keyslar asosida yechim topish	Kommunikativ va hamkorlikda ishlash kompetensiyasi	Fikr bildirishi, mulohaza yuritishi, guruhda faol ishtiroki
R — Reflection (Refleksiya)	O'z-o'zini tahlil qilish, portfoliolar yuritish, "Men nimalarni o'rgandim?" savollari	Refleksiv va kasbiy-axloqiy kompetensiya	Mustaqil fikrlash, o'zini baholash, mas'uliyat hissi

– atrof muhit omillarining holatini tekshirish, uni tahlil qilish va olingan natijalarni gigiyenanuqtai-nazardan baholash (ovqatlanish Gigiyenasi, davolash-profilaktika muassasalari Gigiyenasi, mehnat Gigiyenasi, bolalar va o'smirlar Gigiyenasi, radiatsion gigiyena sohasida) ni o'rgatish;

– sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

– talabning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish.

Tibbiy ta'lim talabalari fanni o'rganish orqali quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

– Tibbiyot sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;

– axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasvvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy shiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;

– tanlangan tibbiyot turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;

- innovatsion g‘oyalardan foydalanishga tayyor bo‘lish;
- odam organizmiga turli xildagi ijtimoiy - gigiyenik omillarning (ovqatlanish, mehnat, turmush, o‘qish va tarbiyalash sharoitlari va b.) ta’siri bilan bog‘liq holda ularning umumiy gigiyenik ta’riflari va sog‘lomlashtirish tadbirlarining asoslarini;
- davolash-profilaktika muassasalariga bo‘lgan gigiyenik talablarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- ovqatlanishning adekvatligini baholash;
- kasalxona xonalarining mikroiklimni o‘rganish va baholash;
- kasalxona xonalari havosining antropogen kimyoviy ifloslanganligini tekshirish va baholash (karbonat angidrid gazi misolida);
- kasalxona xonalarining tabiiy va sun’iy yoritilganlik holatini baholash;
- ichimlik suvining zararsizlantirilish sifatini tekshirish va baholash;
- davolash-profilaktika muassasalarida davolovchi - himoyalovchi va sanitar va epidemiologik tadbirlarni ta’minlash uchun sharoitlarni baholash malakalariga (shu jumladan amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak.

Aytish lozimki, ushbu kompetensiyalar orqali tibbiy ta’lim talabarlari kelajakda shifokor sifatida faoliyat yuritishi uchun kerakli ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ushbu kompetensiyalar tibbiy ta’lim talabalarining kelgusida gigiyena fanini valeologiya, fizika, anatomiya, tibbiy biologiya, tibbiy kimyo, biologik kimyo, mikrobiologiya, epidemiologiya, normal va patologik fiziologiya, mikrobiologiya, biofizika, ichki kasalliklar, yuqumli kasalliklar fani bilan integratsiya qilgan holda o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi⁸.

Ikkinchi bob **“Tibbiy ta’limda intensiv texnologiyalar orqali talabalarning profilaktik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari”** deb nomlanib, tibbiy ta’limda didaktik ta’lim texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, ularni tibbiy ta’limda gigiyena fanini o‘qitish jarayonlariga tadbiiq etish texnologiyalari haqida fikr yuritilgan.

Gigiyena fanini tibbiy ta’lim talabalariga o‘rgatish davomida ularning profilaktik kompetentligiga alohida e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktik faoliyat tarkibidagi kognitiv komponent faoliyatda, zamonaviy ta’lim jarayoni kontekstida uning har xil ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu komponent quyidagi bilimlarni o‘z tarkibiga oladi:

- nazariy, shu jumladan, profilaktik faoliyatni amalga oshirish shakllari, tamoyillari, maqsadlari, mazmuni, usullari hamda shakllari haqidagi bilimlar;
- profilaktik faoliyatning mohiyatini bilishni metodologik, odamning atrofidagi dunyo bilan munosabatlarini o‘z ichiga olgan usullaridan biridir;
- texnologik, rivojlanayotgan o‘quv texnologiyalari hamda ularni amalga oshirish haqidagi bilimlarga asoslangan.


Biz tadqiqotimizda «STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)» modeli ma’lum bir obyekt haqida yangi axborotlar olish imkonini beruvchi, tadqiqot predmetini ilmiy jihatdan aks ettiruvchi fikriy tasavvur yoki uning moddiy ko‘rinishga ega ekanini tadqiq qildik. Bugungi kunda «STIR (Strategy, Technology,

⁸ Kadirova M. Tibbiy ta’lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o‘qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – N., 2023. – B. 116.

Interactivity, Reflection)» tushunchasi shunchalik keng qo‘llanilmoqdaki, u hatto olam haqidagi istalgan bilimlar va tasavvurlarga ham tegishli bo‘lib qolmoqda. Masalan, zamonaviy nuqtai nazardan istalgan faoliyatning maqsadi faoliyat natijasini aks ettiruvshi model sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

«STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)» modeli gigiyena fanida talabaning profilaktik faoliyatini tashkil etishda juda muhim o‘rin tutib, faoliyatning barcha turlarini subyekt va uni o‘rab turgan atrof-muhit orasida aylanib yuruvchi axborotlarning asosiy ko‘lami yo‘nalishi bo‘yicha taqsimlashda qulaylik tug‘diradi. Mazkur tasnif asosida modelni maqsadning nazariy va amaliy yo‘nalganligiga qarab, bilishga doir va pragmatik guruhga ajratish mumkin.

«STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)» modeli asosida gigiyena darslarini to‘g‘ri rejalashtirish talabalarda ta‘lim -tarbiya darajasini va jismoniy madaniyat ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim muassasalarida profilaktika dars mashg‘ulotlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida, yangicha usulda tashkil etish talabalarni sog‘lom qilib tarbiyalashda va jismoniy rivojlantirish bilan birga ularni yetuk kasb egasi bo‘lishlarida yuqori samara beradi. Shuningdek, profilaktika talabalarida jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan yuksalishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Yoshlarni sog‘lom bo‘lib voyaga yetishlarini ta‘minlash masalasi milliy pedagogikamiz, xalq og‘zaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh g‘oyalardan biri bo‘lib kelgan. Shunday ekan, ularni o‘rganish, tahlil qilish va ta‘lim tizimiga tadbiq etish asosiy vazifalardan biridir⁹.



2.1- rasm. STIR modelining o‘ziga xos jihatlari

⁹ A.Smith. Developing Teaching Communities: The Role of STIR in Professional Growth // Innovative education, №1, 2022.-P.226-239.

Strategiya (Strategy) - rejalashtirish va maqsadga yo'naltirilgan yondashuv: Gigiyena fanini o'qitishda o'quv dasturlari va metodlarni samarali rejalashtirish, talabalarni yuksak darajada profilaktik kompetentlikka ega bo'lishiga yo'naltirish.

2. Texnologiya (Technology) - innovatsion texnologiyalarni qo'llash: STIR modelining texnologik komponenti, masalan, simulyatsiya, virtual o'quv platformalari va Intensiv texnologiyalar yordamida talabalarni gigiyena va profilaktik kasalliklarni oldini olish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga o'rgatish¹⁰.

3. Intensivlik (Interactivity) - talabalar o'quv jarayonida faol ishtirok etishi va o'z bilimlarini boshqalar bilan almashishi orqali samarali o'rganishni ta'minlaydi. STIR modelining Intensiv komponenti o'quv jarayoniga faollikni joriy qilishga qaratilgan bo'lib, bu talabalar o'rtasida o'zaro muloqotni, savollarni, fikr almashishni va muhokama qilishni rag'batlantiradi.
